

TA'LIM SAMARADORLIDINI OSHIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

Abdimuratova Durdona Mamayusufovna*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Maqolada Yaponiya, Finlandiya, Singapur, kabi ilg'or xorijiy ta'lim tizimi tuzilmasi, tajribasi va zamonaviy ta'lim dasturlari qisqacha tahlil qilingan. Shuningdek ta'lim tizimidagi yutuqlari, tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *mamlakat, ta'lim, tajriba. xorijiy tajriba, tuzilma, xalqaro baholash.*

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'limga oid bir qator islohatlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o'quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta'lim to'la ma'noda yangicha tafakkur, sog'lom fikr demakdir. Hozirgi davrda ta'limning qadr -qimmat, obro' va nufuziga teng darajada uning ijrochilarida tashabbuskorlik, fidoiylilik va ishbilarmonlik ham bo'lmog'i zarur. Qadimdan bizda bilim olish qadrlangan. Bilimdon kishilar esa el- yurt ardog'ida bo'lganlar. Shuning uchun ham bilim olish va olingan bilimni mamlakatimiz xizmati yo'lida xizmat qildirish oliy insoniylik burchimizdir. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishni muhim shartlaridan biri chet el maktabi va pedagogikasi tajribalari o'rganishdir. Xalqaro tajribalarini sinchkovlik va qunt bilan o'rganish orqali ta'lim tarbiyada qotib qolgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo'lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ega bo'lamiz. Maktabgacha ta'lim rivojlantirilayotganini maktab saboqlariga puxta zamin bo'lmoqda. Umumiy o'rta ta'lim sifati ilg'or xalqaro tajriba va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda. Prezident maktablari, buyuk allomalarimiz nomi bilan ataladigan ixtisoslashtirilgan maktablar, ijod maktablari, Temurbeklar maktablari kabi zamonaviy va innovatsion ta'lim maskanlari tashkil etildi. Ularda xalqaro tajribalar yo'lga qo'yilganligi kelajakda yetuk kadrlar yetishib chiqishidan 2019-yil 26- noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, „ Zamonaviy maktab“ larni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida“gi qaror qabul qilindi. Qarorga muvofiq 2021-yilgacha maktablarning kamida 3 foizi, 2025-yilgacha 20 foizi 2030-yilga qadar esa 50 foizini, „ zamonaviy maktab“ larga aylantirishning asosiy parametrlari belgilandi. Bu islohatlarni amalga oshirishda ta'lim sifatini oshirishda xalqaro rivojlangan davlatlar tajribalarini o'rganish yuqori natijalarga olib keladi. Bugungi kunda ta'lim mazmuniga bo'lgan e'tibor rivojlangan mamlakatlardagi shart –sharoitlarga yetib bormoqda. Buning isboti sifatida xorijiy mamlakatlarda ta'lim tizimini tahlil qilib o'tamiz

Yaponiya ta'lim tizimi

Ilg'or mamlakatlar ichida Yaponiya ta'limi o'ziga xos yo'nalishi yetakchi o'rinni egallaydi. Jumladan, Yaponiya ta'lim tizimining tarkibi quyidagicha: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi oliy o'quv yurtlari. Boshlang'ich maktabda o'qituvchilar bolalarni tanqidga, ya'ni o'z xulqining yomon jihatlarini, maktabdagi kamchiliklarni tanqid qilishga o'rgatishadi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi faqat ta'lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tomonlama rivojlanishiga tasir etadi. Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o'qituvchining maoshi davlat rahbarlari orasida ham yuqori bo'lgan yagona davlat. Majburiy ta'lim muhiti. Ta'limning bu pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. Muhtoj oilalarning bolalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Yuqori o'rta maktab 10-11-12-sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi, kechki bo'limlari mavjud. Yuqori bosqich o'rta maktablarda butun o'quv jarayonida o'quvchilar 80 ta sinov topshirishadi. O'quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o'z xohishlariga ko'ra ingliz tili, texnik ta'lim va maxsus sinovlarga jalb etiladi. Universitetlariga yuqori va o'rta maktabning yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o'quvchilari qabul qilinadi. Universitetlarga qabul qilinish 2 bosqichga bo'linadi: 1-bosqich turar joyda o'tkaziladi, buning uchun yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tkaziladi. Yaponiyada oliy ta'lim majburiy hisoblanadi va u kasb ta'limi bilan uzviy bog'liqdir.

Finlandiya ta'lim tizimi

Hozirgi kunda Finlandiya talim tizimi eng rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. Finlyandiya ta'lim tizimining asosini quyidagi 7 ta tamoyil tashkil etadi deyish mumkin:

1. Tenglik - Finlyandiyadagi barcha maktablar o'quvchilarga bir xil sharoit va bir xil ta'lim tizimini taqdim etadi.
2. Bepul ta'lim - bepul ta'lim berish bilan birgalikda o'quvchilarga barcha o'quv jihozlari va tushlik ham bepul taqdim etiladi.
3. Individuallik – darslarni o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan o'qituvchilar yoki yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar alohida shug'ullanishadi. Finlyandiyada o'quvchilar qo'shimcha darslarga qoldirilmaydi.
4. Amaliylik – o'quvchilarni imtihonga emas balki hayotga tayyorlash. Darslarda o'quvchilar, masalan, viza kartadan qanday foydalanish, shartnomalar tuzish, saytlar yaratish, tikish, ovqat pishirish, marketing va sotuv ishlari bilan shug'ullanish kabi amaliy ishlar bilan shug'ullanadilar.
5. Ishonch va o'qituvchilar salohiyati – barcha maktablardagi o'qituvchilar magistratura darajasiga ega bo'lishlari shart. O'quvchilarga uy vazifasi deyarli berilmaydi, ota-onalar farzandlari bilan uyda shug'ullanmaydi va o'qituvchilarning o'quvchilarni hayotga tayyorlashiga to'liq ishonishadi.

6. Ixtiyoriylik – dars jarayonida qay darajada ishtirok etish o‘quvchilar ixtiyorida. O‘qituvchilar o‘quvchilarni darsga qiziqтира olmasalar o‘quvchilar sinfni tark etishi yoki o‘zlari yoqtirgan boshqa biror mashg‘ulot bilan shug‘ullanishlari mumkin.

7. Mustaqillik – fin ta‘lim tizimida o‘qituvchilar o‘quvchilarni imkon qadar o‘zlari bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishlari kerakligiga yo‘naltiradi. Bilimlarni hayotda qanday tatbiq etish ko‘nikmalari amaliy mashg‘ulotlar yordamida shakllantiriladi. O‘quvchilarning har qanday fikrlari inobatga olinadi va qo‘llab quvvatlanadi.

Finlyandiya ta‘lim tizimining muvaffaqiyati bir qancha omillar tizimidan tarkib topgan va bunda o‘qituvchilarning salohiyati ushbu tizimning eng muhim omili hisoblanadi.

Shuningdek, ta‘limda teng sharoitlar, uzoq muddatli ta‘lim siyosati, ishonch madaniyati va mustaqil ta‘lim olish odatiga urg‘u berish bu muvaffaqiyatning boshqa sabablari hisoblanadi. O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi yuqori darajadagi hamkorlik ta‘lim tizimining uzluksiz ishlashiga yordam beradi. Finlyandiya ta‘lim islohotlarining muvaffaqiyatida fin xalqining o‘zaro tenglik va hamkorlik qadriyati, shuningdek, ta‘lim tizimi va boshqa ijtimoiy xizmatlar o‘rtasida jamiyatda ijtimoiy adolatni ta‘minlash bo‘yicha yuqori darajadagi hamkorlikning mavjudligi va ularning yagona uyg‘unlikda faoliyat ko‘rsatishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, Finlyandiya muvaffaqiyatining sabablari haqida gapirar ekanmiz, ushbu yutuqning yana bir tomoni Finlyandiya ta‘limida nimaga urg‘u berilsa PISA dasturidagi baholashlar ham aynan shular bilan chambarchas bog‘liq. Ya‘ni o‘quvchilarga faqat bilim berish o‘rniga, savodxonlik qobiliyatlarini rivojlantirish Finlyandiya ta‘limining markazida turadi, bu fin o‘quvchilariga PISA kabi savodxonlikka yo‘naltirilgan baholash tizimida ustunlik beradi.

O‘qituvchilarning yuqori salohiyatga ega ekanligi fin ta‘lim muassasalarining muvaffaqiyatga erishishidagi navbatdagi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Sinf rahbarlari ham, fan o‘qituvchilari ham o‘qitadigan fan mazmunini juda yaxshi bilishadi va o‘quvchilarning sinflarda faol bo‘lishlari uchun turli xil o‘qitish metodikalaridan foydalanadilar. Shuningdek, ular bilimlarni tushuntirish uchun ko‘plab kundalik hayotiy misollardan foydalanadilar.

Bundan tashqari, fin jamiyatida mavjud yuqori saviyadagi kitobxonlik madaniyati ham o‘quvchilarning muvaffaqiyatiga bevosita ta‘sir qiladi. Finlyandiya kutubxonalar tarmog‘i juda zich joylashgan va ular doimo gavjum.

Xulosa qilib aytganda, Finlyandiya ta‘lim tizimining muvaffaqiyati fin xalqining qadriyatlari va madaniyat bilan chambarchas bog‘liq. Finlyandiya muvaffaqiyatidan saboq olish, ta‘lim tizimini chuqur o‘rgangan holda undagi muhim jihatlarni o‘zimizga moslashtirgan holda foydalanishimiz zarur.

Singapur ta‘lim tizimi

Singapur ta‘limi bugungi kunga qadar 3 bosqichni bosib o‘tdi:

Birinchi bosqich — 1959– 1979 yillarda barcha ta’lim dasturlari standartlashtirildi. Maktablarda o’qitish uchun asosiy til etib ingliz tili tanlandi. Shu yillari ta’limni rivojlantirish dasturi doirasida 83 ta maktab qurilib, davlat tomonidan moliyalashtirildi. Oliy ta’limni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

1979 yildan 1997 yilga qadar davom etgan ikkinchi bosqichda esa ta’lim sifatini oshirishga urg’u berildi. Maktablarda sinflar bolalarning qobiliyatiga ko’ra ixtisoslana boshladi. 1992 yili texnik ta’lim instituti tashkil etilib, maktablarda maxsus texnik ta’lim joriy qilindi. 1997 yildan ta’lim tizimidagi mavjud imkoniyatlarni “pullash” bosqichi boshlandi. Ko’proq mablag’ evaziga yaxshiroq ta’lim olish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, 2008 yildan maktablardagi ommaviy ta’lim bekor qilinib, fuqarolar butun hayoti davomida olishi mumkin bo’lgan individual ta’lim dasturlariga yo’l ochildi.

Oliy o’quv yurti talabalari uchun o’qish pulini to’liq qoplaydigan “Edusave” ta’lim grantlari tizimi joriy etildi. Bir so’z bilan aytganda, mamlakatda do’stona ta’lim (ingliz va xitoy tillarida o’qitish), yosh avlodga puxta bilim berish, aholining barcha qatlami uchun davlat tomonidan kafolatlangan ta’limni joriy etish hamda har bir o’quvchiga alohida e’tibor qaratish kabi omillar asosida Singapurda zamonaviy ta’lim tizimi shakllantirildi.

Singapurda har bir bola 10 yil muddat davom etadigan umumiy ta’limni olish huquqiga ega. Bu ta’lim 6 yil boshlang’ich ta’lim va 4 yil o’rta ta’limni o’z ichiga qamrab oladi. Singapur ta’lim tizimida asosiy urg’u bolalarni o’qishga, hisoblashga, 2 ta tilda gapira olishga o’rgatish, bolalarda jismoniy va axloqiy tarbiyani shakllantirish, ijodiy va mustaqil fikrlashni o’stirishdir. 2 tilli siyosat har bir boladan ingliz tilini o’rganish bilan bir qatorda o’z ona tilisini ham puxta va mukammal o’rganishni talab qiladi. Singapurdagi barcha maktablarda ta’lim 2 tilda olib boriladi. Ya’ni, ingliz tili va xitoy tili. Ta’limni ikki tilda tashkil etilishining bir necha jihatlari mavjud. Jumladan, ingliz tili – jahon tili sifatida dunyoviy ilmlarni o’rganish maqsadida qo’llanilsa, xitoy tili – aholining o’z milliy urf - odatlari, madaniyati, tarixini o’rganishda muhim hisoblanadi. Shuningdek, Singapur – ko’p millatli xalq bo’lganligi sababli, mamlakatning gullab - yashnashi va kelajagining yaxshilanishi uchun mamlakatda yashovchi har bir fuqaroga uning tili va dinidan qat’iy nazar, bir xil yaxshi munosabatda bo’lishni talab etadi.

Ta’limning yuqori darajaga ega bo’lgan yo’nalishlari gumanitar fanlar emas, balki aniq va tabiiy fanlarda o’z aksini topadi. Bolalarni qobiliyatiga qarab ma’lum bir guruhlariga bo’lish mobaynida ularning bilim darajasiga qarab o’quv dasturlarini tuzish prinsiplaridan foydalanishni taqozo qoladi.

Singapurdagi har bir bola dini va irqidan qat’iy nazar 6 yoshdan 16 yoshgacha bo’lgan davrni o’z ichiga olgan 10 yillik ta’limni olish huquqiga egadir. Mamlakatda shuningdek, davlat o’quv muassasalari bilan bir qatorda xususiy o’quv muassasalari ham mavjud. Boshlang’ich ta’limni tamomlagandan keyin o’quvchilar Primary School

Having examination (PSHE) imtihonlarini topshiradilar. Oʻrta taʼlim haqidagi Serrtifikat Singapurda Singapore – Cambridge General Certificate of education oʻrta maktabini tamomlagandan keyin beriladi va bu sertifikat butun jahon mamlakatlarida tan olinadi. Singapurda Oliy oʻquv yurtlariga kirish uchun Universitetga kirishga moʻljallangan maxsus kurslardan oʻtish lozim. Shuningdek, ingliz tilini oʻrganishga qaratilgan maxsus oʻquv markazlari ham yaratilgan. Singapur taʼlimining yana bir oʻziga xosligi noodatiy baholash tizimidir. Aksariyat taʼlim muassasalarida oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajasi toʻqqiz ballikdir. Aytib oʻtish kerakki, taʼlim sifatini oshirishda Singapur nafaqat davlat mablagʻini qoʻlladi, bundan tashqari, xususiy sektor ham faol ravishda taʼlimga investitsiya kiritib kelmoqda. Statistika oʻrnida, Singapur taʼlim uchun 2019- yilning oʻzida qariyb 14 million dollar miqdorida mablagʻ ajratgan Aynan ushbu jihatda Singapur oʻzining kelajagiga qanchalar befarq emasligini, rivojlanish uchun davlatdan tashqari, xalqning boy qatlami, tadbirkorlari ham sarmoya kiritayotgani eʼtiborga va tahsinga loyiqdir. Singapur taʼlim tizimi mustahkam va samaradorligi tufayli bugunga kelib, taʼlim sifati reytingi boʻyicha xalqaro darajada peshqadamlikni qoʻlga kiritdi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni. -T.:Oʻzbekiston. 2020
- 2.Yoʻldoshev J.F. Xorijda taʼlim (metodik qoʻllanma) - Toshkent: 1995- yil
- 3.G.Anorqulkova, A. Karimov.Xorijiy mamlakatlar taʼlim tizimining oʻziga xos yoʻnalishi uslub va tahlili. Xalq taʼlimi ilmiy metodik jurnali..
- 4.Najmiddinova G., Qurbonova U. Qiyosiy pedagogika darslik - 2014y.
- 5.Xodjaev B., Mutalipova M. Qiyosiy pedagogika - T.: 2015y.